

Kasbiy bayram munosabati bilan

Hozirgi kunda jamiyatimizda har qanday soha vakili e'tibordan chetda qolayotgani yo'q desak, adashmagan bo'lamiz, menimcha. Buning isbotini esa chiqarilayotgan qonun va qarorlardan yaqqol qo'rishimiz mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning tashabbuslari bilan dekabr oyining ikkinchi yakshanbasi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi xodimlari kuni" etib belgilandi. Ayni paytda qishloq xo'jaligi xodimlari bu kunni katta shodiyona bilan nishonlashmoqda. Bizning institutimizni ham bayram quvonchi chetlab o'tgani yo'q.

2019 yilning 10 dekabr sanasida institutimizda O'zbekiston Respublikasi kasaba uyushma Federatsiyasi O'zbekiston Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashining tashabbusi bilan "Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni" ko'tarinki ruhda nishonlandi. Tadbirni o'zining ajoyib tabrik so'zlari bilan institutimiz matbuot kotibi Raximboy Jumaniyozov olib bordilar.



Bayram tadbiri bilan kechamizni ochib berish uchun so'z navbatini Institut yoshlar bilan ishslash bo'yicha prorektori Choriev Ro'zimurat Kungratovichga berildi. Samimiyl tilaklardan so'ng ikkinchi tabrik O'zbekiston Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi o'rinnbosari Bayniyazov Erkin Bozorovichga berildi. Tadbir davomida qishloq xo'jaligi sohasida ko'p yillardan beri xizmat qilib kelayotgan xodimlar munosib taqdirlandilar. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, aynan bizning institutimizda ko'p yillardan beri talaba-yoshlarga bilim berib kelayotgan quyidagi professor-o'qituvchilar ham bayram munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi kasaba uyushma Federatsiyasi tomonidan tashakkurnoma hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar: Marupov Isajon Marupovich, Shavazov Qodirjon Ochilovich, Alikulov Saydulla, Xafizova Zulfiya Xolmuratovna, Li Afanasiy Semyonovich, Hasanov Baxriddin Baratovich, Arifjanov Aybek Muxamedjanovich, Nazaraliev Dilshod Valijonovich, Denmuxammadiev Aktam Mavltonovich, Gazieva Rano Teshabaevna, Sangirova Umida Ravshanovnalarni muborakbod etamiz!



Institut KUQ yo'riqchisi U.Manzirboev axboroti

Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov